

CHET TILLARINI O'QITISHDA ONLAYN TA'LIMNING YUTUQ VA MUAMMOLARI.

*Ilmiy rahbar: Yuldasheva F.F
O'zDJTU Katta oqituvchisi
Muallif: Mamajonova Rayxona
XTA-3 102 - guruh talabasi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada xorijiy tillarni o'qitish jarayonida onlayn ta'larning yutuqlari, imkoniyatlari va kamchiliklariga tasnif beriladi. Zamonaviy texnologiyaning ta'limgarayonidagi ahamiyati haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: chet tili, masofaviy ta'limgarayonida, zamonaviy texnologiya va ularidan foydalanish, onlayn maktablar.

Bugungi kun, zamona talablariga ko'ra har bir sohada ilg'or bo'lismish talab etilmoqda. Ayniqsa, har qanday kasb egasi o'zining ish jarayonida qaysidir chet tilini bilish hamda zamonaviy texnologiya vositalaridan to'g'ri va samarali foydalanishga ehtiyoj sezmoqda. Bu albatta tabiiy hol. Hozirgi rivojlangan va rivojlanishda davom etayotgan dunyoda qanchalik bilimli bo'lsang shuncha yaxshi. Bundan tashqari har bir sohada texnologiyalar o'ziga xos o'rinni tutmoqda, shu bois xodimlardan ham ularidan foydalanishda yetarlicha ko'nigmaga ega bolish talab etiladi. Albatta, korxona, tashkilot va muassasalar faqatgina texnik savodxonlik talabi bilan cheklanib qolmaydi. Zamon talablariga mos ravishda ona tilidan tashqari yana boshqa bir yoki ikki tilni bilish ish jarayonimizda faqat va faqat omad olib keladi. Barchamizga ma'lum har bir sohani rivojlantirish bo'yicha turli tadbirlar olib borilmoqda va chet davlatlaridan bir qancha investitsion loyihalar mamlakatimizga kirib kelmoqda, iqtisodiyot o'sishida alohida o'rinni tutib kelmoqda.

Buning oqibatida ham korxona tashkilotlarda chet tillari bo'yicha bilimga ega kadrlarga ehtiyoj ortmoqda. Tillarni o'rganishga sizda yetarlicha vaqt yo'qmi, bu sabab bo'la olmaydi. Hozirda ta'limgarayonida an'anaviy va masofaviy turlari mavjud. Ta'limgarayonida olish uchun vaqt ajrataolmaydigan yoki sifatli o'quv kurslarini taklif etuvchi markazlardan olisda bo'lsangiz masofaviy ta'limgarayonida aynan siz uchun. Bundan tashqari barchaga ma'lum bo'lgan COVID-19 kasalligi dunyo bo'ylab tarqalishi oqibatida barcha o'quvchilar va talabalar masofaviy tizimda bilim olishga majbur bo'ldilar. Bu esa o'z o'rnida bu yo'nalishning qanchalik samarali ekanini namoyish etishga yordam berdi. An'anaviy ta'limgarayonida masofaviy onlayn ta'limgarayonida bir-biri bilan taqqoslashga ham imkon yaratildi. [1 ;83-87]

Mavzu yuzasidan tahlillar



Til bizga boshqa insonlar bilan aloqa o'rnatishda, his-tuyg'u va istaklarimizni ifodalab berishda yordam beradi. Chet tillarini o'rganish esa ongimizni yanada o'stiradi. Biz til o'rganish jarayoni davomida faqatgina tilni o'rganibgina qolmay, balki bu tilning tarixini ham o'zlashtiramiz. Qolaversa shu til orqali muloqot qiluvchi davlatning madaniyati an'analari e'tiborimizdan chetda qolmaydi. Xorijiy tilni o'rganish insonni ko'proq ochiq fikrlashga undaydi. Dunyoqarash va tasavvur doirangiz kengayadi va tiniqlashadi. Shunday afzalliklar tufayli ham til o'rganishning turli uslublari rivojlanib bormoqda. Misol uchun ingliz tilini o'rgatish jarayonida o'rganuvchining yoshi, salohiyati va daraasi e'tiborga olinadi. Bu esa o'z navbatida kutilgandek natijaga erishishni osonlashtiradi. Ingliz tilini o'qitishda uch bosqich mavjud: boshlang'ich, o'rta va yuqori. Har bir bosqich uchun ishlab chiqiladigan alohida dasturlar mavjud.

Har bir sohada bo'lgani kabi ingliz tilini o'rganishda ham zamonaviy texnologiyalarning roli katta. O'qitish davomida o'qituvchi mahalliy so'zlovchilarning nutqi yozib olingan audiolardan, ingliz tilidagi multfilm, kino va teleko'rsatuv resusrlaridan samarali foydalana bilsa, o'quvchida ingliz tilida gapirish qobiliyati tezroq o'sadi. Odathish kitoblarda ko'rsatilgan mashqlar ham zerikarli bo'lib qolgan, texnologiyalardan foydalaishning esa ayni vaqt. Ko'pchilik ota-onalar an'anaviy ta'limni onlayn talimdan ko'ra ustunroq ko'rishiga qaramay, insonlar pandemiya sabab uyda o'tirib masofadan ta'lim olish va ta'lim berishga majbur bo'lib qoldi. Bu jarayon masofaviy ta'lim ham o'ziga yarasha yaxshi tomonlarga ega ekanini ko'rsatdi. [2;105-108]

-maktabga, o'quv markazi va universitetga boorish uchun sarflanadigan vaqt tejab qolinadi;

-tejalgan vaqt ko'proq shug'ullanishga imkon yaratadi;

-yo'l haqi va shunga o'xshash harajatlar uchun sarflanadigam mablag'tejaladi, oila budgeti foyda ko'radi;

-texnologiyalardan samarali foydalanish salohiyati o'rtib boradi;

-chalg'tuvchi o'yinlar, bazmlar yoki sog'liqdagi muammolar sabab darslar o'tkazib yuborilmaydi;

-mustaqil ish olib boorish o'zi bilim olishi uchun ozi harakat qilish salohiyati ortadi, ya'ni o'quvchi o'z foydasi uchun o'zi tirishib ishlaydi va izlanadi;

-texnikadan foydalanish madaniyati shakllanadi;

-dars jarayonlariga istalgan joyda turib qatnashish mumkin tarmoqga ulanish orqali;

Shu bilan birga zararli tomonlari ham mavjud

-bizning davlatimizda hali onlayn ta'lim uchun yetarlicha shart sharoit mavjud emas;

-bazi hududlarda tarmoqqa ulanish imkonii mavjud emas;

-har qanday yoshdagi o'quvchining shaxsiy gadjetlari mavjud emas, ya'ni texnika yetishmasligi;

-o'quvchilarda masofaviy ta'lif olish uchun qoniqarli ko'nikma shakllanmagan;

-dars jarayonlaridagi kabi raqobat darajasi tushib ketadi;

-pedagoklarning bir qismidagina onlayn ta'lif berish uchun salohiyat mavjud, ya'ni hamma ham texnologiyalardan foydalanish ilmi kuchli emas;

-o'quvchilar o'z uyidan turib alohida ta'lif olgani bois o'zlashtirayotgan bilimlarini hayotga tatbiq qilishi kam bo'ladi va bu o'zlashtirish jarayonini sekinlashtiradi;

Shu kabi muammolar va yutuqlar pandemiya tufayli barchaga namoyon bo'ldi

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak har bir uslubning o'ziga yarasha yutuq va kamchiliklari mavjud. Kamchiliklarni bartaraf etish esa insonlarning o'ziga bog'liq. Onlayn ta'lifning esa hali ko'zga ko'rinishi ulgurmagan ko'plab imkoniyatlari mavjud. Faqat ularni ochib berish zarur.

References

1. "Science and education" scientific journal P.83-87
2. Malaysian journal " Social sciences and humanity" P. 105-108